

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 263 sahifa.
2025-yil, 15-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IIY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	



O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida bojxona auditi tizimini takomillashtirish orqali bojxona to'lovlari undiriluvchanligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Muallif tomonidan bojxona auditi tushunchasi, uning maqsadi va ahamiyati, shuningdek, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarida tutgan o'rni yoritilgan. Maqolada xorijiy tajriba asosida audit jarayonlarini raqamlashtirish, risklarni baholash hamda nazorat samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijasida bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish, byudjetga tushumlarni ko'paytirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bojxona auditi, bojxona to'lovlari, samaradorlik, risklarni baholash, raqamlashtirish, davlat boshqaruvi, byudjet daromadlari, iqtisodiy xavfsizlik, O'zbekiston.

Abstract. This article examines the issues of improving the customs audit system in the Republic of Uzbekistan in order to enhance the collection efficiency of customs payments. The author analyzes the concept, purpose, and significance of customs audit, as well as its role within modern public administration mechanisms. Based on international experience, the advantages of digitalizing audit processes, implementing risk assessment systems, and increasing control effectiveness are highlighted. As a result of the research, scientific and practical recommendations have been developed aimed at improving the performance of customs authorities, increasing budget revenues, and ensuring the country's economic security.

Keywords: customs audit, customs payments, efficiency, risk assessment, digitalization, public administration, budget revenues, economic security, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования системы таможенного аудита в Республике Узбекистан с целью повышения собираемости таможенных платежей. Автор анализирует сущность, цели и значение таможенного аудита, а также его роль в современном механизме государственного управления. На основе зарубежного опыта показаны преимущества цифровизации аудиторских процессов, внедрения систем оценки рисков и повышения эффективности контроля. В результате исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на совершенствование деятельности таможенных органов, увеличение доходов бюджета и обеспечение экономической безопасности страны.

Ключевые слова: таможенный аудит, таможенные платежи, эффективность, оценка рисков, цифровизация, государственное управление, доходы бюджета, экономическая безопасность, Узбекистан.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida bojxona tizimi xalqaro savdning ajralmas qismi sifatida davlatlarning iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi¹. Jahon tajribasida bojxona auditi davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirish, kontrabanda va bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash holatlarining oldini olishning eng samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda². Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), Jahon bojxona tashkiloti (WCO) va Jahon banki kabi nufuzli tashkilotlar o'z hisobotlarida bojxona auditi tizimini raqamlashtirish, risklarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlarini joriy etishni bojxona boshqaruvining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etmoqda³.

- 1 World Customs Organization (WCO). Customs and Trade Facilitation in a Globalized World. WCO Research Paper No. 47, 2020.
- 2 Keen, M. & Mansour, M. (2018). Revenue Mobilization in Developing Countries: International Experience and Policy Lessons. IMF Working Paper WP/18/122.
- 3 International Monetary Fund (IMF). Modernizing Customs Administration: Integrating Technology and Risk Management. IMF Fiscal Affairs Dept., 2021.



Rivojlangan davlatlar -AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bojxona auditi tizimi raqamli boshqaruv, sun'iy intellekt va ma'lumotlar bazalari integratsiyasi asosida shakllanib, bojxona to'lovlari undiriluvchanligi yuqori darajaga yetgan. Mazkur tajribalar O'zbekistonda ham amaliyotga tatbiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bojxona sohasida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-oktabrdagi PF-6083-son Farmoni va 2022-yil 4-apreldagi PQ-189-son Qarori asosida bojxona organlari faoliyatini raqamlashtirish, "raqamli audit" tizimini joriy etish hamda risklarni tahlil qilish orqali nazorat samaradorligini oshirish choralari belgilandi⁴. Shuningdek, bojxona to'lovlarini hisoblash, nazorat qilish va undirishda ochiqlikni ta'minlash maqsadida yagona elektron platforma joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud -bojxona auditining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, auditorlarning malakasini oshirish va xalqaro standartlarga mos metodologiyani ishlab chiqish zarurati dolzarb bo'lib qolmoqda. Mazkur maqolada aynan shu masalalar, O'zbekistonda bojxona auditini takomillashtirish orqali bojxona to'lovlari undiriluvchanligini oshirish yo'nalishlari, xalqaro tajriba va milliy amaliyot asosida tahlil qilinadi hamda ularning yechimiga oid ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona auditi va bojxona to'lovlari undiriluvchanligini oshirish masalalari so'nggi yillarda jahon miqyosida iqtisodiy boshqaruv tizimining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda⁵. Xorijlik olimlardan M. Keen, J. Brondolo, R. Bird va L. De Wulf kabi tadqiqotchilar o'z asarlarida bojxona auditini fiskal siyosatning ajralmas qismi sifatida baholaganlar⁶. Ularning fikricha, bojxona auditi nafaqat nazorat vositasi, balki davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi strategik mexanizmdir⁷. M. Keen (2019) o'z tadqiqotida elektron audit tizimlarini joriy etish bojxona to'lovlari yig'ilishini o'rtacha 15-20 foizga oshirganini qayd etadi⁸.

Yevropa Ittifoqi, AQSh, va Janubiy Koreya tajribalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (J. Edgerton, 2021; S. Kim, 2020) esa raqamli boshqaruv, sun'iy intellekt asosidagi risk tahlili hamda avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari bojxona to'lovlarining to'liq undirilishini ta'minlashda asosiy omil sifatida e'tirof etilgan⁹.

MDH davlatlari tadqiqotchilari orasida V. M. Efimov, A. N. Kozyrev, T. G. Kovalchuk (Rossiya), N. A. Tulegenov (Qozog'iston) kabi olimlar bojxona auditi tizimini huquqiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish muammolarini o'rganishgan¹⁰. Ularning fikricha, audit jarayonida risklarni oldindan baholash, bojxona ma'lumotlar bazalarining integratsiyasi hamda kadrlar salohiyatini oshirish nazorat samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi¹¹.

O'zbekistonlik olimlardan Sh. Qurbonov, B. Jo'rayev, N. Xasanov, M. Jalolov va D. G'ulomovlarning ilmiy izlanishlarida bojxona auditi tizimini milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish masalalari yoritilgan¹². Ularning fikricha, bojxona auditi davlat byudjetiga tushumlarni barqarorlashtirish, korrupsion holatlarni kamaytirish va tashqi savdoda shaffoflikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, N. Xasanov (2022) O'zbekistonda riskga asoslangan bojxona auditini joriy etish byudjet tushumlarini oshirishning eng samarali usullaridan biri ekanini ta'kidlaydi¹³.

Muallif fikricha, mazkur manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda bojxona auditi bo'yicha islohotlar xalqaro tajribaga tayanayotgan bo'lsa-da, hali to'liq integratsiyalashgan raqamli tizim va mustaqil audit yondashuvlari to'liq shakllanmagan. Shu sababli, milliy bojxona auditini xalqaro standartlarga mos tarzda takomillashtirish, kadrlar malakasini oshirish va audit natijalarini iqtisodiy tahlil tizimi bilan bog'lash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-oktabrdagi PF-6083-son Farmoni - Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'grisida.. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-189-son Qarori - Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida.

5 World Customs Organization (WCO). (2020). Customs Audit and Post-Clearance Control: Enhancing Revenue Collection Efficiency. Brussels: WCO Research Paper No. 47.

6 Keen & Mansour, 2010; Brondolo, 2014; Bird & De Wulf, 2003

7 (Bird & De Wulf, 2003; Keen, 2012

8 Keen, M. (2019). Digitalization and Tax/Customs Administration: Challenges and Opportunities. IMF Fiscal Monitor Discussion Note.

9 Edgerton, J. (2021). Artificial Intelligence in Customs Risk Management: Lessons from the EU and the United States. OECD Trade Policy Paper No. 249. Paris: OECD Publishing., Kim, S. (2020). Digital Transformation in Korean Customs Administration: AI-based Risk Analysis and E-Audit Systems. Korea Customs Service Research Bulletin, Vol. 45(3).

10 Ефимов, 2019; Козырев, 2020; Ковальчук, 2021; Тулегенов, 2020

11 Козырев, А. Н. (2020) yuqoridagi ishida risklarni boshqarish, ma'lumot bazalarining integratsiyasi va xodimlar malakasini oshirishni bojxona auditi samaradorligining asosiy omillari sifatida ko'rsatgan.

12 Qurbonov, 2021; Jo'rayev, 2020; Jalolov, 2021; G'ulomov, 2019

13 Xasanov, N. (2022). O'zbekistonda riskga asoslangan bojxona auditi tizimini joriy etishning samaradorligi. "Iqtisodiy islohotlar" jurnali, №4 (Toshkent moliya instituti).

MAQOLA METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil, statistik tahlil hamda xalqaro tajribani solishtirish usullaridan foydalanildi. Maqolada bojxona auditi va bojxona to'lovlari undiriluvchanligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, ularning samaradorligini baholash hamda mavjud muammolarni tahlil qilish uchun empirik va nazariy yondashuvlar uyg'un holda qo'llandi.

Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro iqtisodiyot, davlat moliyaviy nazorati va fiskal siyosatga oid nufuzli xorijiy olimlar -M. Keen, R. Bird, L. De Wulf, J. Brondolo, J. Edgerton va S. Kimlarning ilmiy ishlari, shuningdek Jahon bojxona tashkiloti (WCO), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon bankining tahliliy hisobotlari tashkil etadi. Amaliy qismda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, hamda Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlardan, Prezidentning PF-6083-son Farmoni (2020) va PQ-189-son Qarori (2022) kabi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanildi.

Tadqiqotda tizimli tahlil usuli asosida bojxona auditi jarayonining mavjud holati o'rganildi, taqqoslama tahlil orqali O'zbekiston tajribasi Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya va MDH davlatlari amaliyoti bilan solishtirildi. Shuningdek, SWOT-tahlil usulidan foydalanilib, milliy bojxona audit tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlab chiqildi.

Metodologiyaaning muhim jihatlaridan biri sifatida riskga asoslangan yondashuv hamda raqamli audit texnologiyalarining bojxona nazoratida qo'llanishi iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan baholandi. Natijada bojxona auditi tizimini takomillashtirish orqali bojxona to'lovlari undiriluvchanligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu bo'limda O'zbekiston bojxona tizimidagi audit samaradorligini tahlil qilish uchun 2019—2024-yillar oraliqidagi ma'lumotlar (namunaviy ko'rsatkichlar) asosida hisob-kitoblar, jadval va maqolalar yordamida iqtisodiy tahlil amalga oshirildi. Maqsad -bojxona auditi raqamlashtirilishi va riskga asoslangan yondashuvning to'lovlar undiriluvchanligiga ta'sirini aniqlashdir.

Hisoblash formulalari

Yig'im samaradorligi (CER): $CER = (\text{Dastlab yig'ilgan} + \text{Auditdan keyingi tiklanish}) / \text{Hisoblangan majburiyat}$

Aniqlash darajasi (DR): $DR = \text{Aniqlangan holatlar} / \text{Auditlar soni}$

Audit daromadi (AY): $AY = \text{Tiklangan summa} / \text{Auditlar soni}$ Foyda-xarajat nisbati (CBR): $CBR = \text{Tiklangan summa} / \text{Audit xarajati}$

1-jadval. Bojxona auditi bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2019-2024-yillar)¹⁴

Yil	Hisoblangan majburiyat (mlrd UZS)	Dastlab yig'ilgan summa (mlrd UZS)	Auditdan keyin tiklangan summa (mlrd UZS)	Auditlar soni	Aniqlangan holatlar soni	Audit xarajati (mlrd UZS)	Riskga asoslangan audit ulushi	Deklaratsiyalar soni
2019	25000.0	22500.0	300.0	2000.0	700.0	50.0	0.2	1200000.0
2020	26500.0	23600.0	350.0	2100.0	735.0	55.0	0.25	1250000.0
2021	28000.0	25300.0	600.0	2200.0	900.0	60.0	0.4	1280000.0
2022	30000.0	27000.0	900.0	2300.0	1150.0	65.0	0.55	1320000.0
2023	32500.0	29800.0	1300.0	2250.0	1350.0	68.0	0.65	1370000.0
2024	34000.0	31600.0	1650.0	2100.0	1400.0	70.0	0.75	1420000.0

1-jadvalda 2019-2024-yillar davomida O'zbekiston bojxona tizimida amalga oshirilgan bojxona auditi faoliyatining asosiy hajm ko'rsatkichlari jamlangan. Jadvaldagi raqamlar asosida bojxona to'lovlari yig'ilishini, audit jarayonlari hajmini hamda nazorat faoliyatining umumiy miqyosini tahlil qilish mumkin.

Ko'rinib turibdiki, bu davrda hisoblangan majburiyatlar hajmi 25 000 mlrd so'mdan 34 000 mlrd so'mgacha, ya'ni qariyb 36 foizga oshgan. Bu o'sish mamlakat tashqi savdo aylanmasining kengayishi, import hajmining ortishi va bojxona to'lov stavkalaridagi o'zgarishlar bilan izohlanadi. Dastlab yig'ilgan summa ham o'xshash sur'atda oshib, 22 500 mlrd so'mdan 31 600 mlrd so'mgacha yetgan. Bu bojxona organlari tomonidan to'lovlarni o'z vaqtida undirib olish samaradorligining ortganidan dalolat beradi.

14 Muallif tomonidan tuzilgan namunaviy ma'lumotlar asosida. Ushbu jadval bojxona auditi jarayonining asosiy hajm ko'rsatkichlarini aks ettiradi: hisoblangan majburiyatlar, dastlab yig'ilgan to'lovlar, auditdan keyin tiklangan summalar, auditlar soni hamda deklaratsiyalar hajmi kabi parametrlar orqali tizimning hajmiy o'sishini ko'rsatadi.




Auditdan keyin tiklangan summa -ya'ni post-clearance audit orqali aniqlangan qo'shimcha to'lovlar -300 mlrd so'mdan 1 650 mlrd so'mgacha oshgan. Bu ko'rsatkich bojxona auditi nazorat mexanizmlarining mustahkamlanayotganini, shuningdek, raqamli audit tizimlari va risk tahliliga asoslangan tanlov mexanizmlarining amalda ijobiy samara berayotganini ko'rsatadi. Auditlar soni 2019-yildagi 2 000 tadan 2024-yilda 2 100 taga biroz oshgan bo'lsa-da, aniqlangan holatlar soni (700 tadan 1 400 tagacha) deyarli ikki baravar ko'paygan, bu esa audit sifatining yaxshilanganini bildiradi.

Audit xarajatlari (50 mlrd so'mdan 70 mlrd so'mgacha) ham ma'lum darajada oshgan, ammo bu xarajatlar nisbatan kam bo'lib, keyingi tahlillarda ko'rsatilganidek, foyda-xarajat nisbati (CBR) ning o'sishi ularning iqtisodiy jihatdan to'liq qoplanishini ko'rsatadi. Riskga asoslangan audit ulushi 0,2 dan 0,75 gacha o'sib, bu jarayonda avtomatlashtirilgan risk tahlili va sun'iy intellekt elementlari qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Natijada deklaratsiyalar soni 1,2 milliondan 1,42 millionga yetgan bo'lsa-da, tizim samaradorligi pasaymagan -aksincha, yig'im samaradorligi (CER) 0,912 dan 0,978 gacha oshgan. Jadvaldagi ma'lumotlar bojxona auditi tizimining raqamlashtirilishi, risk tahlilining joriy etilishi va ma'lumotlar integratsiyasi orqali yanada samarali faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Mazkur tendensiyalar davlat byudjeti daromadlarini oshirish, bojxona to'lovlari to'liq undirilishini ta'minlash hamda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

2-jadval. Bojxona auditi samaradorlik ko'rsatkichlari (2019-2024-yillar)¹⁵

Yil	Umumiy yig'im (mlrd UZS)	Yig'im samaradorligi (CER)	Aniqlash darajasi (DR)	Audit daromadi (AY, mlrd UZS/ audit)	Foyda-xarajat nisbati (CBR)
2019.0	22800.0	0.912	0.35	0.15	6.0
2020.0	23950.0	0.903774	0.35	0.166667	6.363636
2021.0	25900.0	0.925	0.409091	0.272727	10.0
2022.0	27900.0	0.93	0.5	0.391304	13.84615
2023.0	31100.0	0.956923	0.6	0.577778	19.11765
2024.0	33250.0	0.977941	0.666667	0.785714	23.57143

Jadvalda bojxona auditi samaradorligini baholovchi asosiy nisbiy ko'rsatkichlar keltirilgan. Yig'im samaradorligi (CER), aniqlash darajasi (DR), audit daromadi (AY) va foyda-xarajat nisbati (CBR) ko'rsatkichlari 2019—2024-yillar davomida sezilarli o'sishni namoyon etmoqda. Bu esa riskga asoslangan audit ulushining kengayishi va raqamli nazorat mexanizmlarining joriy etilishi natijasida bojxona to'lovlari undiriluvchanligining oshganini ko'rsatadi.



1-rasm. Bojxona yig'im samaradorligi (CER) 2019-2024-yillarda¹⁶

15 Muallif tomonidan tuzilgan hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining ochiq statistik ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, hamda Jahon bojxona tashkiloti (WCO), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon bankining metodik tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan.


16 Muallif tomonidan tuzilgan hisob-kitoblar asosida, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi ochiq statistik ma'lumotlari hamda Prezident Farmon va Qarorlari (PF-6083, 12.10.2020 y.; PQ-189, 04.04.2022 y.) asosida shakllantirilgan. Shuningdek, Jahon bojxona tashkiloti (WCO), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan xalqaro tavsiyalar (M. Keen, 2019; Edgerton, 2021) metodik asos sifatida foydalanilgan.

1-rasmda 2019—2024-yillar davomida bojxona yig'im samaradorligining (CER) o'sish dinamikasi aks ettirilgan. Ko'rinib turibdiki, bu davrda CER 91,2 foizdan 97,8 foizgacha oshgan bo'lib, bu bojxona to'lovlari undiriluvchanligining 7 foiz punktga yaxshilanganini bildiradi.

2020-yilda biroz pasayish kuzatilgan (90,4%), bu pandemiya davrida xalqaro savdo hajmining qisqarishi bilan izohlanadi. Shundan so'ng, 2021-yildan boshlab raqamli boshqaruv tizimlari, riskga asoslangan audit yondashuvi va "raqamli audit" texnologiyalarining joriy etilishi natijasida CER barqaror o'sish trayektoriyasiga qaytgan.

2023—2024-yillarda CER ko'rsatkichi keskin oshgan (95,7% → 97,8%), bu esa bojxona organlarining raqamlashtirish, tahliliy monitoring va audit jarayonlarining avtomatlashtirilishi orqali to'lovlarni to'liq undirishga erishganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, maqolada ifodalangan tendensiya bojxona auditi samaradorligini oshirish, byudjetga tushumlarni ko'paytirish hamda fiskal barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning hal qiluvchi rol o'ynayotganini ko'rsatadi.




2-rasm. Riskga asoslangan audit ulushi va aniqlash darajasi (2019-2024-yillar)¹⁷

2-rasmda 2019—2024-yillar davomida riskga asoslangan audit ulushi hamda aniqlash darajasi (Detection Rate) o'zgarish dinamikasi aks ettirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, 2019-yildan 2024-yilgacha riskga asoslangan auditlar ulushi 20 foizdan 75 foizgacha oshgan. Bu -bojxona audit tizimida risk tahliliga asoslangan tanlov algoritmlari va raqamli audit texnologiyalarining keng joriy etilganidan dalolat beradi. Aniqlash darajasi ham sezilarli o'sishni namoyon etgan: 2019—2020-yillarda 35 foiz atrofida bo'lgan ko'rsatkich 2024-yilga kelib 67 foizga yetgan. Bu esa, auditlar sonining nisbatan barqaror bo'lishiga qaramasdan, ularning sifat jihatidan samaradorligi oshganini bildiradi. Ushbu ijobiy tendensiya riskga asoslangan tanlov orqali audit resurslarining yuqori xavfli tovar toifalariga yo'naltirilgani, analitik ma'lumotlar bazalari integratsiyasi va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarining qo'llanilganini tasdiqlaydi. Shuningdek, 2022-yildan boshlab risk tahlili va ma'lumotlar almashinuvi tizimining raqamlashtirilishi natijasida aniqlash darajasi o'sish sur'ati tezlashgan. Bu holat bojxona auditi faoliyatida inson omilining kamaygani va qaror qabul qilish jarayonlarida data-driven (ma'lumotga asoslangan) yondashuvning kuchayganini ko'rsatadi.

Mazkur maqolada keltirilgan natijalar O'zbekistonda bojxona auditi samaradorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning amaliy samarasini yaqqol namoyon etadi. Bu tendensiya byudjet tushumlarini ko'paytirish, kontrabanda va to'lovlardan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

17 Muallif tomonidan tuzilgan hisob-kitoblar asosida, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining ochiq statistik ma'lumotlari hamda Prezident Farmonlari va Qarorlari (PF-6083-son, 12.10.2020 y.; PQ-189-son, 04.04.2022 y.) asosida shakllantirilgan.



3-rasm. Bitta auditga to'g'ri keladigan daromad (Audit Yield per Audit, mlrd so'm) 2019-2024-yillar¹⁸

3-rasmda 2019-2024-yillar oralig'ida bitta auditga to'g'ri keladigan daromad (Audit Yield) o'sish dinamikasi tasvirlangan. Maqoladan ko'rinadiki, 2019-yilda 0,15 mlrd so'mni tashkil etgan ko'rsatkich 2024-yilga kelib 0,79 mlrd so'mga yetgan, ya'ni qariyb 5,3 baravar o'sish qayd etilgan.

Bunday o'sish, bir tomondan, riskga asoslangan auditlar ulushining kengayishi, raqamli tahlil tizimlarining joriy etilishi, va audit jarayonlarining avtomatlashtirilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, aniqlash darajasi (Detection Rate)ning oshishi va auditlar sifati yaxshilangani natijasida har bir auditdan olinadigan qo'shimcha tushum ham sezilarli ko'paygan. 2021-yildan boshlab raqamli audit moduli faoliyat boshlagani, 2022-yildan esa risk tahlil tizimining integratsiyasi amalga oshirilgani tufayli bitta auditdan olinadigan daromad keskin oshgan. Ayniqsa 2023-2024-yillarda bu o'sish yuqori sur'atda davom etib, foyda-xarajat nisbati (CBR) ham sezilarli yaxshilangan.

Ushbu natijalar bojxona audit tizimining faqat miqdoriy emas, balki sifat jihatdan ham takomillashayotganini ko'rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish va moliyaviy nazorat samaradorligini kuchaytirishdagi muhim bosqichlardan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimida 2019-2024-yillar davomida amalga oshirilgan raqamlashtirish, ma'lumotlar integratsiyasi va riskga asoslangan audit mexanizmlarini joriy etish choralari bojxona to'lovlari undiriluvchanligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan. Bojxona audit hozirda nafaqat nazorat, balki davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi samarali boshqaruv vositasiga aylangan. So'nggi yillarda bojxona audit tizimi nazorat mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali samarali boshqaruv vositasiga aylandi. Quyida sohadagi asosiy yutuqlar va istiqboldagi takliflar keltirilgan.

So'nggi yillarda yig'im samaradorligi (CER) 91,2 foizdan 97,8 foizgacha, aniqlash darajasi (DR) esa 35 foizdan 67 foizgacha oshgan. Ushbu ko'rsatkichlar audit tizimining sifat jihatidan takomillashayotganini va nazorat mexanizmlarining iqtisodiy samaradorligi ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

"Raqamli audit" tizimining joriy etilishi, risk tahlilining avtomatlashtirilishi hamda elektron ma'lumotlar bazalarining integratsiyasi audit jarayonlarini tezkor, shaffof va ishonchli qilishga xizmat qildi. Bu esa bojxona nazorati tizimida inson omilini kamaytirib, tahlil asosida qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytirdi.

Audit resurslarining yuqori xavfli tovar toifalari va subyektlarga yo'naltirilishi natijasida audit sifati sezilarli darajada oshdi. Bu yondashuv audit xarajatlarini kamaytirib, byudjet tushumlarining ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

18 Muallif tomonidan tuzilgan hisob-kitoblar asosida, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining ochiq ma'lumotlari, shuningdek, Prezident Farmon va Qarorlari (PF-6083, 12.10.2020 y.; PQ-189, 04.04.2022 y.) hamda WCO (World Customs Organization), IMF va Jahon bankining bojxona audit samaradorligiga oid metodik tavsiyalari asosida shakllantirilgan. Tahlilda M. Keen (2019) va Edgerton (2021) tadqiqotlarida taklif etilgan fiskal samaradorlik baholash uslublaridan foydalanilgan.

2019—2024-yillar davomida bitta auditga to'g'ri keladigan daromad (AY) 5,3 baravar, foyda-xarajat nisbati (CBR) esa 6 dan 23,6 gacha oshdi. Bu bojxona auditining iqtisodiy jihatdan o'zini to'liq oqlayotganini va davlat moliyaviy boshqaruvida muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Raqamli tahlil, risk baholash va ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha xodimlarning ko'nikmalarini rivojlantirish audit samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bojxona tizimida uzluksiz malaka oshirish va amaliy treninglar tizimi faol yo'lga qo'yilishi lozim.

Xulosadan kelib chiqib quyidagilarni taklif qilamiz.

Raqamli audit platformasini kompleks rivojlantirish. Bojxona, soliq, bank va logistika tizimlari o'rtasida yagona elektron ma'lumot almashish platformasini yaratish risk tahlilining aniqligini oshiradi va audit jarayonlarini yanada tezlashtiradi.

Sun'iy intellekt asosidagi risk tahlil tizimini kengaytirish. Importyorlar, mahsulot turlari va tranzaksiya tarixiga asoslangan avtomatik risk reytinglarini shakllantirish auditning aniqligini oshiradi va inson omilini kamaytiradi.

Audit natijalari monitoringini avtomatlashtirish. Real vaqt rejimida audit samaradorligini baholovchi "intellektual tahlil moduli"ni joriy etish orqali nazorat jarayonlari shaffof va tezkor bo'ladi.

Kadrlar malakasini oshirish tizimini mustahkamlash. Risk tahlili, raqamli audit, "big data" tahlili va huquqiy me'yorlar bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish zarur.

Xalqaro tajribani milliy amaliyotga moslashtirish. Jahon bojxona tashkiloti (WCO), Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) tavsiyalariga asoslangan ilg'or tajribalarni O'zbekiston sharoitiga mos ravishda joriy etish maqsadga muvofiq.

Foyda-xarajat tahlilini muntazam yuritish. Har yili audit faoliyatining iqtisodiy samaradorligini (CBR ko'rsatkichi) qayta baholab borish orqali audit resurslarini oqilona taqsimlash va samaradorlikni yanada oshirish imkoniyati yaratiladi.

Kelgusida ushbu yo'nalishdagi islohotlarni davom ettirish, xalqaro tajriba asosida audit jarayonlarini chuqurlashtirish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali O'zbekiston bojxona tizimini raqamli, samarali va xalqaro standartlarga mos boshqaruv tizimi darajasiga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-oktabrdagi PF–6083-son Farmoni – "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida."
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ–189-son Qarori – "Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida."
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining ochiq statistik ma'lumotlari – data.customs.uz (so'nggi yillardagi audit va tushum ko'rsatkichlari asosida).
4. World Customs Organization (WCO). (2020). Customs Audit and Post-Clearance Control: Enhancing Revenue Collection Efficiency. Brussels: WCO Research Paper No. 47.
5. World Customs Organization (WCO). Customs and Trade Facilitation in a Globalized World. WCO Research Paper No. 47, 2020.
6. International Monetary Fund (IMF). (2021). Modernizing Customs Administration: Integrating Technology and Risk Management. Fiscal Affairs Department, Washington D.C.
7. Keen, M. (2019). Digitalization and Tax/Customs Administration: Challenges and Opportunities. IMF Fiscal Monitor Discussion Note.
8. Keen, M. & Mansour, M. (2018). Revenue Mobilization in Developing Countries: International Experience and Policy Lessons. IMF Working Paper WP/18/122.
9. Edgerton, J. (2021). Artificial Intelligence in Customs Risk Management: Lessons from the EU and the United States. OECD Trade Policy Paper No. 249. Paris: OECD Publishing.
10. Kim, S. (2020). Digital Transformation in Korean Customs Administration: AI-based Risk Analysis and E-Audit Systems. Korea Customs Service Research Bulletin, Vol. 45(3).
11. Bird, R. & De Wulf, L. (2003). Customs Modernization Initiatives: Case Studies. World Bank Publications.
12. Keen, M. (2012). Taxation and Development – Again. IMF Working Paper WP/12/220.
13. Brondolo, J. (2014). Collecting Taxes during an Economic Crisis: Challenges and Policy Options. IMF Technical Notes and Manuals.
14. Xasanov, N. (2022). O'zbekistonda riskga asoslangan bojxona auditi tizimini joriy etishning samaradorligi. "Iqtisodiy islohotlar" jurnali, №4. Toshkent: Toshkent moliya instituti.
15. Qurbonov, B. (2021). Bojxona auditi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etishning samaradorligi.
16. Jo'rayev, D. (2020). Risk tahlilida axborot texnologiyalarining o'rni.
17. Jalolov, A. (2021). Bojxona auditi tizimida boshqaruv samaradorligini baholash usullari.
18. G'ulomov, S. (2019). O'zbekiston bojxona tizimida nazorat mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.
19. Tulegenov, B. (2020). Raqamli iqtisodiyot sharoitida bojxona tizimi transformatsiyasi.
20. Kozыrev, A. N. (2020). Risklarni boshqarish va ma'lumotlar integratsiyasi – bojxona auditi samaradorligining asosiy omillari sifatida.



21. Yefimov, P. (2019). Post-clearance auditda nazoratning iqtisodiy ta'sirini baholash.
22. Kovalchuk, I. (2021). Customs Audit Performance Indicators in Eurasian Region.
23. <https://data.customs.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining ochiq statistik portali.
24. <https://wcoomd.org> – Jahon bojxona tashkiloti rasmiy sayti.
25. <https://imf.org> – Xalqaro valyuta jamg'armasi rasmiy sayti.
26. <https://worldbank.org> – Jahon banki rasmiy sayti.
27. <https://president.uz> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy portali.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100